



ALISHER NAVOIYNING “TUHFAT UL- AFKOR” QASIDASIDA ORIF OBRAZI TALQINI

Narzullayeva Yulduz Bahodirovna

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo`nalishi 2- kurs magistranti

Ma`lumki, mumtoz adabiyot tasavvuf bilan chambarchas bog`liq holda o`rganiladi. Chunki, tasavvufga oid ilohiy tushunchalar va obrazlar klassik adabiyotimizga ham bevosita ko`chib o`tgan. Ushbu tasavvufiy obrazlardan bir orif obrazidir. Orif kim? Dastavval, shu so`zning ma`nosiga to`xtalib o`tsak. Orif- Allohn, sifatlarini, fe'llarini va ismlarini kashf va mushohada yo`li bilan taniydigan odam. Orifi billah- Alloh haqida ma`rifat va irfon egasi bo`lgan, komil inson, hikmat va asrorga oshno bo`lgan, fano martabasiga erishgan valiy, ilohiy ma`rifatni egallagan kishi. Ma`rifat esa arabcha “arafa” so`zidan olingan bo`lib, “bilih”, “tanish” degan ma`noni anglatadi. Ya`ni , Allohn tanish ilmidan xabardor odam. Junayd Bag`dodiy orifni idish rangiga moslab rangini o`zgartiradigan suvga qiyos qilgan va bu qiyosi bilan orifning har bir vaziyatga mos tarzda harakat qilib, holatini o`zgartirishini nazarda tutgan. Ushbu obraz mumtoz adabiyotimizda uchraydigan an`anaviy obrazlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Navoiy ijodida ham orif obrazi salmoqli o`rin egallagan. Buni Alisher Navoiyning “Sittayi zaruriya ” qasidalar turkumiga kiruvchi “Tuhfat ul-afkor” qasidasi misolida ko`raylik. Ushbu qasidada Navoiy dastlab , faqrlik maqomi haqida payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislariga ham to`xtalib o`tishni joiz ko`radi.

Rah s̄yi Haq behad, ammo hast aqrab rohi faqr,

Bahri on-k «Al-faqrū faxrū» guftai payg`ambar ast.

Baytning mazmuni: Haqqa olib boradigan yo'llar ko'p, ammo tez eltuvchi va yaqin yo'l—faqr yo'lidir, shuning uchun ham payg`ambar «alfaqrū faxri» (faqirlik faxrimdir) degan. Bu o'rinda «alfaqrū faxriy», ya'ni «faqrlik mening faxrimdir» iborasi Muhammad payg`ambarning hadislaridandir. Yuqoridagi misralarda Navoiy tamsil san'atini qo'llab, «Olloh dargohiga olib boradigan yo'l ko'p, biroq «faqr» yo'li eng yaqin qo'ldir» deb hazrat payg`ambarimizning so'zlarini dalil sifatida keltiradi. Faqr atamasining tasavvufiy ma`nosi Haqqa yetishishga monelik qiladigan barcha to`silalar (o`zlik , kibruhavo, g`urur, manmanlik, nafs talablari, mol-mulk va mansabjoh orzusi va hok.)dan voz kechib, ko`ngilni Haq nazargohiga aylantirishdir. Navoiy yuqoridagi baytda tamsil san'atini qo'llab, hali qiz Maryamga Iso farzand bo`lgani kabi yangi, ochilmagan teran ma'nolardan jonga rohat baxsh etuvchi holat va kayfiyatlarning yuzaga kelishi ajablanarli emas, degan mazmunga ishora qiladi.

Faqr- tariqat yo`liga kirgan orifning to`rtinchi maqomi; faqirlik bu moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik qilish emas, balki Allahu taborak oldida o`zini ojiz, g`arib va faqir his qilishdir

Qasidaning quyidagi baytida esa Navoiy orif qanday bo`lishi kerakligiga urg`u berib o`tadi:



*Mardro xatti naçot amvoçi xunobi dil ast,
Rindro hirzi qadah arqomi davri sog'ar ast.*

Baytning mazmuni: Ushbu baytni tahlil qilishdan avval, ayrim tasavvufiy istilohlarning izohiga to`xtalib o`tish joiz:

Xat- kibriyolik (ulug`lik, buyukli) hijobi; g`ayb olami.

Xunob- qon suvi

Rind- botinan xudojo`y , taqvodor bo`lsa-da, zohiran mayxo`r, ishratparast bo`lib yashovchi kishi

Qadah- ko`ngil timsoli

May piyolasi- ma`rifat bodasidan to`la shayxning qalbi

Ushbu baytda chin orifning najot xati— yurak xunobi (qon suvi)ning to`lqinlari bo`lib, rindning qadah tumori (duosi) may piyolasi atrofidagi xatlardir. Ya`ni , haqiqiy orifning ilohiy najoti yurak xunobining to`lqinlaridir. Taqvodor kishining ko`nglidagi duosi esa ilohiy ma`rifatdan to`lgan orif qalbi atrofidagi xatlardir.

Mardro yak manzil az mulki fano don to baqo,

Mehrro yakryza rah az Boxtar to Xovar ast.

Baytning mazmuni: Haqiqiy orifga fano mulkidan to baqo mulkigacha bir manzil deb bil, quyoshga sharqdan g`arbgacha bir kunlik yo`ldir.

Fano- tasavvuf namoyondalarining fikricha “fano” holati va “o`zlikdan kechish” Allohnning fazlu rahmati natijasidir. Solik o`zining fanoga erishganligini bilmasa, bu fanoning oliy bosqichi hisoblanadi. Chunki har qanday holatda so`fiyning Haq jamoli mushohadasiga sho`ng`iganligi “baqo” va “davom”dir . Zero, so`fiy fanofilloh bo`lsa, unga o`q va xanjar urilsa ham sezmaydi. Oriflar “fano”ni “baqo”ning boshlanishi deb aytishlariga sabab inson o`zida o`lib, Xudoga bog`lanib tiriladi. Shuning uchun ham Mansur Halloj “analhaq” (men Haqman) yoki Boyazid Bistomiy “subhoniy, subhoniy, mo a`zama sha`ni” (pokdirman, sharafliman naqadar ulug` mening sha`nim) deganlarida ikkovlari ham fano holida bo`lib , o`zlarini yo`qotgan va Xudoga ruhan bog`lanib ketgan edilar .

Baqo-mavju bo`lmoq , davom etmoq, yomon odatlarni tark etib yaxshi odatlarga ega bo`lish, inson va boshqa narsalarning quvvat va ta`sirini ko`rmasdan faqat Allohnning quvvat va ta`sirini ko`rish. Allohdan boshqa hech narsani ko`rmaslik.

Mehr- quyosh

Andar in rah on ki dorad gom bar gomi rasul,

Arshparvozest, k-ŷ ham rohrav, ham rahbar ast.

Baytning mazmuni: Bu (Haqqa eltadigan) yo`lda payg`ambar bilan izma-iz borgan kishi. Arshga parvoz qiladi, chunki u (payg`ambar) yo`l yuruvchi va yo`l boshlovchidir. Ushbu qasidada Navoiy orif obrazini payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) timsolida gavdalantirganlar. Payg`ambarimizga ergashgan kishi , shubhasiz , Arshga parvoz qiladi va haqqa yetishadi . Shu sababli, u kishini haqiqiy orif sifatida bilib, payg`ambarimizga ergashishni, ularga mos ummat bo`lish lozimligini aytib o`tganlar. Payg`ambarimizga ergashgan kishi ,shubhasiz , Arshga parvoz qiladi va haqqa



yetishadi. Illohiy ma'rifat nurlaridan bahramand bo'ladi. Navoiy qasidada orif obrazini xuddi shu tarzda gavdalantiradi.

«Tuhfat ul-afkor»ning yozilgan yili qasidaning xotima oldidagi quydagi baytda zikr etiladi:

*Gasht «Yavmi ҷоме'i shahri rajab» ta'rixi on,
Turfatar, k-on mohu ryz itmomi ūro mazhar ast.*

Baytning mazmuni: Qasidaning yozib tugallanish tarixi «Yavmi jome'i shahri rajab» bo'ldi, ajabki, u oyu kun hisobi uning nihoya topganiga mazhardir.

Bu qasidaning ta'rixi rajab oyining jum'a kuniga to'g'ri keladi. Ajoyib joyi shundaki, shu kun va shu oyning abjad hisobi qasidaning tugallangan sanasini ham kursatadi, demak edi. Shunday qilib qasidaning tugallangan yili «yavmi jome'i shahri rajab» so'zlari tarkibidagi harflarning son yig'indisidan kelib chiqadi (Hijriy 880, milodiy esa 1476 yil). Sadriddin Ayniy «Alisher Navoiy» asarida ushbu ta'rixning yechimiga to'liq keltiradi (O'sha kitob, 1948. 38-sah.).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to`plami . 20-jild . Toshkent "Fan" nashriyoti , 2002.
2. Sayfiddin Rafiddinov Sittayi zaruriya. Toshkent "Fan" nashriyoti , 2005.
3. Ali Muhammadiy Xurosoniy . Devoni forsiy. Dushanbe "Donish" 2021.
4. Sadriddin Ayniy . Alisher Navoiy . 1948. 38-sah.
5. Abdulhakim Tabibiy. Sayri tasavvuf dar Afg'oniston, Qobul, 1356 h. 81-

bet